



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTAMAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
“TARIX” KAFEDRASI

REFERAT

**MAVZU: RESPUBLIKA OLIY SOVET TOMONIDAN “MUSTAQILLIK
DEKLORATSIYASI”NING QABUL QILINISHIDAGI**

SHART-SHAROITLAR

2013/2014 O'QUV YILI



Bajardi: III kurs “301” guruh talabasi Tog'ayeva D.

Tekshirdi:

Dot. S.R.To'rayev

Toshkent-2013

Mundarija

Kirish.....	4-9
1.Mustaqillik e’lon qilinishi arafasida respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.....	10-23
2.Respublika Oliy Soveti tomonidan “Mustaqillik Dekloratsiyasi”ning qabul qilinishi.....	24-30
3.“Mustaqillik Dekloratsiyasi”ning asosiy mazmuni.....	31-38
4. “Mustaqillik Dekloratsiyasi”ning davlat mustaqilligini e’lon qilinishidagi ahamiyati.....	39-44
Xulosa	45-46
Adabiyotlar ro’yxati.....	47-48

Respublika Oliy Sovet tomonidan “ Mustaqillik Dekloratsiyasi “ qabul qilinishidagi tarixiy shart-sharoitlar (I.A.Karimovning “O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” asari asosida)

Kirish

Reja:

1. Mustaqillik e’lon qilinishi arafasida Respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.
2. Respublika oliy sovet tomonidan “Mustaqillik Dekloratsiyasining” qabul qilinishi.
3. “Mustaqillik Dekloratsiyasi”ning asosiy mazmuni.
4. “Mustaqillik Dekloratsiyasi”ning davlat mustaqilligini e’lon qilinishining ahamiyati.

Xulosa

Kirish

“O‘zbek xalqi azaldan o‘z fikr-zikri, o‘z istiqloli uchun kurashib yashagan. Bunga moziy guvoh. Millatimiz tarixi haqidagi haqiqat, yurtimizning fidoiy, o‘z yo‘lidan, maslagidan, so‘zidan qaytmaydigan farzandlariga ochilishi lozim. Bilishimiz shart bo‘lgan tarix sahifalarini qunt bilan varaqlash hammamiz uchun ham qarz, ham farz”.¹

Zero, yurtboshimizning bu so‘zlaridan ayonki biz o‘z tariximizni xaqqoniy ochib berishimiz va undan to‘g‘ri xulosa chiqarmog‘imiz lozim.

Shu maqsad yo‘lida Respublika Oliy Sovet tomonidan “Mustaqillik Dekloratsiyasi”ning qabul qilinishidagi tarixiy shart-sharoitlar masalasini ochib berishga harakat qilaman.

Mavzuning dolzarbligi

Mustaqillik Dekloratsiyasining qabul qilinishi tarixiy jarayon va o‘ta dolzarb mavzu hisoblanadi. Chunki u xalqimizning asrlar mobaynidagiozodlikni orzu qilib chinakam mustaqillik qabul qilinishida poydevor bo‘lib xizmat qilgan. Biz yoshlar uning ahamiyatini chuqur anglagan xolda bu tarixiy jarayonni puxta o‘rganishimiz darkor. Yana bir ahamiyatli tomoni millat uchun zarur erkinlik teng huquqlilik erkin nafas olish eng asosiysi ajdodlar ezosi va avlodlar barkamolligi uchun katta yutuq sanaladi.

O‘rganilish darajasi

O‘rganilish darajasi nihoyatda keng va ahamiyatli chunki mamlakatimiz mustaqillikka erishishi va rivojlanish strategiyasini asoslab beradi. Bu muhim hujjatni hech bir tarixchi e‘tibordan chetda qoldirishi mumkin emas va buning iloji ham yo‘q. U avvalambor yurtboshimiz asarlarida o‘z aksini topgan. Bundan

¹Narzulla Jo‘rayev. O‘zbekiston tarixi. T. “Sharq” 2011 9-sahifa

tashqari yetuk olim va mutahassislar ham bu masala yuzasidan o'z fikr va mulohazalarini bildirgan. Xususan Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova, Narzulla Jo'rayev, SH.Karimov, D.A.Alimova, K.O.Oqilov, Q.K.Rajabov, R.H.Karimov,

Murtozaeva va yana ko'plab olim va mutahassislar atroflicha o'rgangan va tahlil qilgan.

Maqsadi va vazifalari

Respublika Oliy Sovet tomonidan Mustaqillik Dekloratsiyasining qabul qilinishidagi tarixiy shart-sharoitlar mavzusini yoritishimdan maqsad Mustaqillik Dekloratsiyasining qabul qilinishidagi tarixiy jarayon, uning ahamiyati, tarkibi, mazmun mohiyatini ochib berish va turli adabiyotlarni o'rganish jarayonida to'g'ri va samarali xulosalar chiqargan holda o'sha davr muhitini yoritish. Mavzu yuzasidan mukammal bilim ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan tarzda uni ertangi kelajak avlodga to'g'ri va teran yetkazib berish.

Mustaqilligimiz e'lon qilinishi arafasida Respublikadagi ijtimoiy-siyosiy ahvolni o'rganish va yoritish.

Mustaqillik Dekloratsiyasining qabul qilinishiga sabablar va uning yaratilishida xalqparvar insonlarning say-harakatlari va tarixiy shart-sharoitda uning qabul qilinishi.

Mustaqillik Dekloratsiyasi mazmun va mohiyati xalq hayotidagi o'rni va jabhalardagi tasiri.

Mustaqillik Dekloratsiyasi davlatimiz mustaqilligini e'lon qilinishidagi tarixiy ahamiyati unga asos va poydevor bo'lganligi.

Mavzunung metodologik asoslari

Bugungi kunda barcha fanlar singari tarix fani ham haqqoniy va xolisona yoritilishi bilan rivolanib bormoqda. Ushbu mavzuning yoritilishida ilmiy haqqoniylik metodologik asos qilib olinib Prezidentimizning asarlari va nutqlarida birinchi o'rinda metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyati

Mavzuning turli manbalardan foydalanib yoritilishi, ilmiy adabiyotlarni, ilmiy nashrlar, materiallarni o'rganib, xulosalar chiqarish mavzuning ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

Ushbu mavzu yoritilgan va u Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida, akademik letsiy va kasb-hunar kollejlarda qo'shimcha manba sifatida foydalanib "O'zbekiston tarixi"ning dars mashg'ulotlarida va qo'shimcha manba sifatida foydalanish mumkin bu mavzuning ahamiyatini belgilaydi.

§1. Mustaqillik e'lon qilinish arafasida Respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat

Mamlakatimizda so'ngi 20 yil ichida erishgan yutuq va marralarimizni holis va munosib baholash uchun mustaqillik ostonasida ijtimoiy-siyosiy hayot qanday murakkab vaziyatda bo'lganini, bu vaziyatni tubdan yangilangan yo'nalishga burib yuborish uchun ulkan donishmandlik va jasorat, insoniylik va ezgulik tamoyillariga yo'g'rilgan, ko'pchilikka ibrat va namuna bo'ladigan vazmin siyosat talab etilganini esga olishimiz va o'zimizga aniq tasavvur etishimiz muhimdir.²

Demak mamlakatimiz mustaqillikka erishishi arafasida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holatlarning fojiali tus olishi, qaror topgan xo'jalik, ishlab chiqarish va moilaviy aloqalarning butunlay izdan chiqishiga barham berish, ishsizlikning yanada kuchayishiga yo'l qo'ymaslik nihoyatda muhim zaruriyat edi.

Quyidagi muammolarning negizi, ularning mohiyat mazmunini hal etishdek mas'uliyatli ish Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov zimmasida edi yurtboshimiz bu murakkab muammolarni o'z donishmandligi sababli samarali hal etdi. O'zbekiston mustaqillikka erishish arafasida mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat murakkab jarayonni boshidan kechirayotgan edi.

50-80 yillarning birinchi yarmi vatanimiz tarixidagi eng murakkab davrlardan biridir. Bir tomondan mehnatkashlarning fidokorona mehnati tufayli respublika iqtisodiyoti rivojlandi. Ikkinchi tomondan, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy hayotda muammolar, noxush holatlar to'planib borib pirovardida inqirozli vaziyatni keltirib chiqardi.³

Mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanish batamom to'xtab qolmagan bo'lsada, siljish suratlari tobora pasayib sekinlashib bordi. Biroq 1956-yilda ijtimoiy hayotda iqtisodiyotni qayta qurish demokratik jamiyatni yarayish uchun urinishlar bo'lda. Bu urinishlar natejasida jamiyatda biroz bo'lsada boshqaruv respublika ixtiyoriga berildi. Demokratlashgan jamiyat vujudga kela boshladi, korxona va tashkilotlarda xo'jalik mustaqilligi kengaytirildi, boshqaruv apparati qisqardi va shu kabi bir qator

² A.SH.Bekmurodov va boshq. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida kitobini o'rganish bo'yicha uslubiy qo'llanma. "O'qituvchi" 2012 99-sahifa.

³ Usmonov Q, Sodiqov M. O'zbekiston tarixi. T.2012 190-sahifa

o'zgarishlar jamiyatning barcha qatlamlariga yetib bormadi va konservativ kuchlarning qarshiligiga duch keldi.

Jamiyatning siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yuzaga kelgan inqirozli holatning sabablari va ildizi fikrlashning orqada qolganligida, muayyan tarixiy sharoitga yetarli siyosiy baho bera olmaganlikda edi.⁴

Ijtimoiy munosabatlar mehnatni rag'batlantirish tizimining buzilishi oqibatida murakkab vaziyat vujudga keldi. Malakali mehnatga haq to'lamasdan kamsitildi. Barcha ishchilar misol uchun vrach va sanitar bir xil maosh olardi. Natejada aholining mehnatga bo'lgan qiziqishi pasayib bordi bu esa unumning pasayishiga olib keldi, mazkur holat yillar davomida o'sib bordi mahsulot tanqisligini keltirib chiqardi.

Bu holatni biz nafaqat ishchilar haqqi masalasida balki jamiyatning har bir ko'rinishida ko'rishimiz mumkin. Jumladan sog'liqni saqlash va xalq maorifi sohalarida ham ko'rib o'tishimiz mumkin. Davlat budjetidagi mablag' bu o'z navbatida ushbu sohalardagi moddiy texnik bazasining eskirishiga, ta'lim jarayonini va aholining tibbiy yordam olishining yomonlashuviga olib keldi. Yurtimizda yosh avlod ta'lim olishi uchun o'quv qurollari u yoqda tursin hatto o'quv muassasalari ham yomon ahvolda edi.

Respublikadagi 9000 ga yaqin maktablarning atiga 40 foizi maktab uchun mo'ljallab qurilgan binolar qolganlari esa moslashtirilgan binolarda o'qirdi. Ko'plari avariya holatida edi. O'quvchilarning ko'pchiligi ikkinchi yoki uchinchi smenada o'qir edi.⁵

O'quvchilarning yiliga 2-3 oylab qishloq xo'jaligi ishlari bilan bandligi o'quv ishlarini ishdan chiqarar edi.

Kadrlar tayyorlashda ham faqat son izidan quvilib sifat esdan chiqdi.

⁴Q.Usmonov, M.Sodiqov.O'zbekiston tarixi.T. "Sharq" 2012 191-sahifa.

⁵Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova.O'zbekiston tarixi. T. "Iqtisod-Moliya", 2006. 381-sahifa

Milliy tahqirlash va kamsitish ayniqsa, kadrlar siyosatida yaqqol ko'zga tashlanardi. O'zbekistondagi respublika, viloyat, shahar va tuman partiya va sovet tashkilotlarining rahbar hodimlari, bo'lim boshliqlari Moskva "nomenktatura"sida bo'lib, KPSS Markaziy Komiteti tomonidan tayinlanar edi.⁶

Mahalliy rahbarlar faqat nomiga qo'yilgan asosiy ish mahalliy rahbar bo'lmagan ikkinchi rahbar qo'lida edi. Kadrlar tanlashda O'zbekistonning hech qanday o'rni va roli bo'lmagan. Bu haqidagi quyidagi I.Usmonxo'jayevning iqrori nihoyatda ahamiyatlidir: "Bir so'z bilan aytganda, hamma narsani markaz hal qilardi. U nima desa, shu bo'lardi. Hattoki obkomning bo'lim boshlig'idan tortib, raykomning birinchi kotibigacha Moskva ixtiyorida turardi. Moskva topshirig'iga ko'ra 40 yoshdan oshgan kishi raykomning birinchi kotibi, 50 yoshdan oshgan kishi esa obkomning birinchi kotibi bo'la olmasdi. U har qancha ishbilarmon bo'lsin, baribir Moskva uning nomzodini o'tkazmasdi".⁷

Kadrlarni tanlash ish o'rinlariga va lavozimlarga qo'yishda xodimning ish qobiliyati, ishbilarmonligi, saviya darajasi, o'z sohasining chuqur bilimdonligi va kasb mutahassisligi kabi zarur belgilar hal qiluvchi rol o'ynamasdi. Balki hodimlarning rus tilini qay darajada bilishi, Markazga shaxsan sadoqatliligi va "baynalminalligi" hisobga olinar edi.

Mustamlakachilik va milliy tahqirlash siyosatining yorqin ko'rinishlaridan biri O'zbekiston KP MQning 1984-yil iyunida bo'lib o'tgan XVI Plenumidan so'ng Markazdan respublikaga yuborilgan "kadrlar desanti" bo'ldi. Bu hodimlar O'zbekiston Kompartiyasining faoliyatiga musaffo oqim baxsh etmoqdalar, eng yirik partiya tashkilotlarining tajribasini jamlab, undan foydalanishga yordamlashmoqdalar" deb maqtanar edi I.Usmonxo'jayev O'zbekiston KP'sining XXI syezdidagi hisobot ma'ruzasida.⁸

⁶Narzulla Jo'rayev, Shodi Karimov. O'zbekiston tarixi. T. "Sharq" 2011. Ikkinchi kitob 596-sahifa

⁷Jo'rayev N, Karimov Sh. O'zbekiston tarixi-T.:2011, II-kitob, 597-sahifa.

⁸O'sha manba, 297-sahifa.

Bu “desantchilar” respublikada sovet, huquq targ’ibot idoralarda rahbarlik lavozimlarida ishladilar va “layoqatsiz” kadrlar o’rnini egalladilar.

Xuddi shu jarayon O’zbekistondan ham Rossiya Federatsiyasiga xodimlar “rejali” jo’natilgan. Ammo Markazdan kelgan xodimlar faqat rahbar lavozimlariga joylashtirilgan bo’lsa, O’zbekistonlik kadrlar faqat qora mehnat zonalarida ishlash va ish o’rganish uchun yuborilgan.

O’zbekiston SSR Ministrlar Soveti 1973-yilda “Ko’chirma oilalar uchun yengilliklar” to’g’risida mahsus qaror ham qabul qilgan. Ushbu qarorga asosan har bir ko’chirma oilada albatta ikkita odam ishga yaroqli bo’lishi kerakligi ko’rsatiladi. Bundan tashqari yolg’iz mehnatkashlarni ham Rossiyaning turli viloyatlariga rejali yuborish O’zbekiston viloyatlari zimmasiga yuklandi. 1987-yilga qadar O’zbekiston Rossiyaning noqoratuproq zonasi va Sibir hududlariga jami bo’lib 30 ming fuqaroni jo’natdi. Ko’chiriluvchilar soni yildan yilga oshib bordi. Jumladan, oilasizlar 1981-yilda 4124 bu ko’rsatkich 11099 kishiga yetdi.⁹ Demak bu jarayon yanada jadalashdi, O’zbekistonlik ishchilar yerlarni o’zlashtirish, qurilish ya’ni turar-joy binolarini qurdilar. Shunday sharoitda savol to’g’iladi O’zbekitonda malakali kadrlar yo’q edimi yoki Rossiyada ishchi kuchi mavjud emasmi? Bu say-harakatlarning tub zamirida boshqa g’oya yotar edi u ulug’ davlatchilik shovinizm siyosatining tarkibiy qismi sanalib, u kichik millitlarni assimilyasiya qilib yuborishdan iborat bosh maqsadga xizmat qiladi.

Shovinizm siyosatining barcha ijtimoiy siyosiy jabhalarda ta’siri keng ko’lamli va u xalq yashash sharoitini yanada og’irlashtirib borgan. Buni biz xususan qishloq xo’jaligi sohasida ham ko’rib o’tishimiz mumkin. Demak qishloq xo’jaligida sifat ko’rsatgichlari yildan yilga pasayib bordi. Mehnatkash aholi o’z mehnatiga yarasha haq olmaganligi sababli mehnat layoqati pasaydi. Markaz borgan sari paxta buyurtmasini oshirib bordi, lekin aholiga to’lanadigan haq

⁹Narzulla Jo’rayev, Shodi Karimov. O’zbekiston tarixi. T. “Sharq” 2011. Ikkinchi kitob, 597-598-sahifalar.

kamligicha qolaverdi. Qishloq oilasining har bir a'zosiga to'g'ri keladigan oylik daromad Rossiyada 98,1 so'mni tashkil etgan bir paytda, O'zbekistonda o'z tamorqasidan tushadigan daromad bilan birgalikda hisoblanganda 58,9 so'mga teng bo'lgan. Natijada O'zbekiston xalqining turmush darajasi pasayib, SSSR mintaqasida oxirgi o'rinlarga tushib qoldi.¹⁰

Bundayin ijtimoiy larzalarda xalqimizning o'ta qiyinchilik bilan hayot kechirgan shunday alamli sharoitda sho'rolar xalqining o'zligini, tilini yo'q qilib rus bo'lmagan millatlarni umuman millat sifatida tobtab assimilyasiyani amalga oshirgan. Bu jarayon, xususan KPSS XXII syezdining "Kommunizm qurish" dasturi qabul qilingach, bevosita kun tartibiga qo'yildi. SSSRda "sotsializm to'la va uzil kesil g'alaba" qilgach, bevosita SSSR xalqining yangi tarixiy birligi sovet xalqi paydo bo'ldi. Bu birlik: "Yagona Vatan-SSSR; "Yagona til-rus tili"; "yagona maqsad kommunizm"; "Yagona mafkura- marksizm leninizm" ga asoslanadi, degan g'oyalardan kelib chiqib, "Yagona xalq- sovet xalqi"; "Yagona pasport-Sovet pasporti" qoidasini ilgari surishgacha borib yetdilar.¹¹

"Baynalminal tarbiya" bayrog'i ostida, sistemali sur'atda, 70-yidan ortiq vaqt mobaynida xaspo'shlab olib borildi. Demak bu g'oyalarning asl maqsadi millatning o'zligini yo'q qilish xalqni sovet xalqiga aylantirish edi. Barcha davlat idoralarida hujjat rus tilida olib borilishi odat tusiga kirdi. O'zbek tili o'z yurtida ikkinchi darajali tilga aylandi. Misol uchun 1970-yilda 1-million nusxada chop etilgan bo'lsa, shundan 600 ming (60%) nusxada rus tilida u faqat 300-400ming (30-40%) o'zbek tilida edi xolos. Holbuki, o'zbeklar O'zbekistonda 73 foizdan ortiqni tashkil etganlar.¹²

¹⁰Q.Usmonov, M.Sodiqov.O'zbekiston tarixi. T."Sharq" 2012, 193-sahifa.

¹¹Narzulla Jo'rayev, Shodi Karimov. O'zbekiston tarixi. T. "Sharq" 2011. Ikkinchi kitob,593-594-sahifalar.

¹²N.Jo'rayev.SH.Karimov. O'zbekiston tarixi.T. "Sharq" 2011-yil (II-kitob) 595-sahifa.

Bu mustaqillik e'lon qilinishi arafasida Respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat haqida o'rganish jarayonida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida sof shovinistik mustamlakachilik siyosati olib borilganiga guvoh bo'ldim.

Xalqimizning juda boy tarixi uning madaniyati, o'ziga xos noyob xususiyatlarni bilmagan va bilishni ham xoxlamagan kelgindilar mahalliy xalqning urf-odatlarini, an'analarini oyoq osti qildilar. Xalqimizning boy madaniyati va ma'naviy qadriyatlari kamsitildi. Milliy libos kiyish qoloqlik deb baholandi. Milliy an'analar bo'yicha to'y qilgan, qarindosh urug'larini milliy va diniy qadriyatlar asosida dafn qilganlar tanqid ostiga olindi, shavqatsiz jazolandi. Bu qadar xo'rlashlar xalqimizning sabr kosasini to'ldirib bordi.

Siyosiy va mafkuraviy zug'umlarga qaramasdan ijtimoiy ong o'zgara boshladi. O'tmish va hozirgi zamon muammolari to'g'risida munozaralar, turli qarashlar, nuqtai nazarlar bildiriladigan bo'ldi. Jamoatchilik paxta yakkahokimligini tugatish, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish, ekologik holatni sog'lomlashtirish kabi masalalarni ko'tara boshladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida kitobini o'rganish bo'yicha o'quv –uslubiy qo'llanmada ijtimoiy-siyosiy jarayon mustabid tuzumdan qolgan og'ir meros haqida aytib o'tilgan.

Mustabid tuzumning repressiv siyosati oqibatlari

Ertangi kunga ishonchsizlikning ortishi

Ozgina uchqun chiqsa, lovullab yonib ketish mumkin bo'lgan vaziyat

Hukmron repressiv siyosat

Mustabid mafkura kuchning saqlanishi

Keng tarqalgan qo'rquv va vahima

Xalq kayfiyatdagi tushkunlik.¹³

Mustabid tuzumdan qolgan og'ir meros

Sog'liqni saqlash ishlarda o'ta ayanchli ahvol

Oddiy ichimlik suvi bilan taminlanmaganligi

9 million kishining daromadi eng zarur darajadan ham pastligi

60 foiz ijtimoiy infratuzilmaning nobopligi

Bir millionga yaqin ishsiz mavjudligi

“Paxta ishi”-tuxmat, tazyiq, taqib nohaq qamalishlar.¹⁴

Xalqimizni o'z girdobiga olayotgan ijtimoiy-siyosiy hayotni isloh qilish o'z o'rnini o'tab bo'lgan mustabit tuzumdan voz kechish, rivojlangan davlatlar tajribasini har tomonlama o'rganish, millatimizning asriy qadriyatlarni urf-odat va boy an'analarni yanada mustahkamlash zaruriy jarayon edi.

Shundayin bir tarixiy sharoitda Mustaqillik Dekloratsiyasining qabul qilinishi xalqimizning yorug' istiqboli uchun qo'yilgan muhim qadam hisoblanadi.

¹³A.SH.Bekmurodov va boshq. O'zbekiston mustaqillik erishish ostonasida kitobini o'rganish bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma. “O'qituvchi” 2012. 100-sahifa

¹⁴O'sh manba. 101-sahifa

§.2.Respublika Oliy Sovet tomonidan “Mustaqillik Dekloratsiyasining” qabul qilinishi

“Mustaqillik Dekloratsiyasining qabul qilinishi xalqimiz, millatim hayotida misli ko’rilmagan tarixiy voqealardan biri sanaladi.Xo’sh bu tarixiy jarayon qanday shart-sharoitda yetildi.

1989-yil 23-iyun kuni O’zbekiston kompartiyasi MQning XIV Plenumida Islom Abdug’aniyevich Karimov O’zbekiston kompartiyasi MQning birinchi kotibi etib saylandi. Bo’lajak yurtboshimiz boshliq yangi rahbariyat millatimizning o’z-o’zini anglashi kuchayib borayotganligini ilk bor etirof etgan.Xalqimiz asriy orzu-umidlari erkin farovonlik uchun kurashish milliy mustaqillikka erishish tomon zabardast qadamlar tashlandi.¹⁵

O’zbek xalqi hayotida muhim o’zgarishlar sodir bo’la boshladi. Bu tub o’zgarishlardan birini kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo’yish va ularni tartiblash masalalarida milliy manfaatdorlikni ta’minlashdagi qaror va farmonlarda ko’rishimiz mumkin. Zero, mahalliy kadrlar rahbarlik lavozimlarini egallay boshladilar.

Kadrlar siyosatidagi jiddiy ijobiy o’zgarish shundan iborat bo’ldiki, endi O’zbekistonda partiya, sovet, davlat, huquqni himoya qilish organlarining boshliqlari Moskva orqali hal qilish, Moskva belgilangan hodimlarni ko’tarish amaliyotiga chek qo’yildi, bu masalalarni hal qilishni respublika rahbariyati o’z qo’liga oldi.¹⁶

Bu rahbarimizning muhim jasorati bo’lib, siyosiy mutelikdan qutilish uchun muhim qadam bo’ldi.

Xususan, rahbarimizning o’zligimizni anglashda asosiy tayanchlaridan til husisida to’g’ri yo’l tutdi. O’zbekiston SSR Oliy Kengashining 1989- yil 21- oktabrda bo’lgan 11-sessiyasi “O’zbekiston SSRning Davlat tili haqida” qonun qabul qildi.

¹⁵Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonov.O’zbekiston tarixi. “Iqtisod- Moliya” 2006 383-sahifa

¹⁶O’sha manba. 384-sahifa

Qonunda “O‘zbekiston SSRning Davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbek tili respublikada siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida to‘liq amal qiladi”, deb belgilab qo‘yildi.¹⁷ Bu qonun qabul qilinishi Qonun va davlat dasturiga binoan mehnat jamoalarida ish yuritish, o‘quv yurtlari, korxona va davlat muassasalarida ish rus tilidan o‘zbek tiliga o‘tkazila boshlandi. Bu qonunning qabul qilinishi va uning tadbiq etilishi mamlakatimiz ijtimoiy hayotida erkinlik sari muhim qadam edi.

1990 yil 18-fevralda O‘zbekiston Oliy Sovetida saylov bo‘ldi. Bu saylovning yangiligi shundan iborat bo‘ldiki, 500 saylov okrugining 326 tasi muqobil nomzodlar ko‘rsatildi. Oldingi saylovda barcha nomzodlarni birinchi turidayoq deyarli yuz foiz ovoz bilan saylangan bo‘lsalar, bu safar birinchi turda 368 nomzod zarur ovozlarni to‘play oldi. Qolgan 132 okrugda qayta saylovlar bo‘lib o‘tdi.

1990-yil 24-31 mart kunlari Toshkentda o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston SSR Oliy sovetining birinchi sessiyasi bo‘lib o‘tdi. 24-mart kuni sessiya respublikalar orasida birinchi bo‘lib “O‘zbekiston SSR Prizidenti lavozimini ta‘sis etish to‘g‘risida” qonun qabul qildi. 1990 yil 24-mart kuni Oliy Sovet sessiyasida yashirin ovoz berish yo‘li bilan Islom Abdug‘aniyevich Karimov O‘zbekiston Prezidendi etib saylandi.¹⁸ Prezidentimiz I.A.Karimov saylanishi bu tub o‘zgarishlar yasalishiga imkon yaratdi. O‘zbekiston fuqoralari kelajak avlodlari hayotining to‘kisligi, tinchlik osoyishtalik muammolarini izchil hal etishni ko‘rsata boshladi. O‘zbekiston oldidagi mana shu dolzarb muammolarni hal etishda Prezident lavozimi keng imkoniyat ochar edi.

Respublikaning prezidenti I.A.Karimov sessiyada “Bu katta ishonch uchun o‘zimning minnatdorchiligimni bildiraman, men buni, eng avvalo, o‘zbek xalqi, O‘zbekiston SSRning barcha mehnatkashlari, ishchilar sinfi, dehqonlar, ziyolilar,

¹⁷SH.Karimov. O‘zbekiston tarixi. T. “Sharq” 2000. 326-sahifa

¹⁸Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonov. O‘zbekiston tarixi. “Iqtisod-Moliya” 2006. 385-sahifa 19.N.Jo‘rayev, T.Fayzullayev. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. T. “Sharq” 2000y. 29-sahifa

jumxuriyatimizda yashovchi hamma millat va xalqlar taqdiri uchun o'z zimmamga tushgan o'lgan burj va javobgarlik deb qabul qilaman. Har bir grajdanning konsitutsion huquqi va erkinliklarini ta'minlash yo'lida katta mas'uliyat deb tushunaman"¹⁹ degan edilar. Ular o'z nutqlarida asosiy vazifalarni belgilab aytib o'tdilar. Xalqimizning siyosiy mustaqilligini mustahkamlash uni yangi mazmun bilan boyitish uning iqtisodiy mustaqilligini takomillashtirish o'z-o'zini mustaqil idora qilish va yanada ko'plab xalq farovonligini uning har bir sohadagi ijobiy o'zgarishlar yasashga intildilar. Shu tariqa Prezident eng qiyin va qonli to'qnashuvlarni boshdan kechirgan xalq oldida butun mas'uliyatni ochiq oydin o'z zimmasiga oldi.

Shu bilan birga Prezident o'z faoliyatining markazida xalqni ma'naviy yuksaltirish, insonni axloqiy va jismoniy takomilligiga erishtirish turganligini hamalohida o'qtiradi.²⁰

Shundayin tarixiy jarayonlar sodir bo'layotgandiki bu xalqimizning o'z erki qadr-qimmati va orzu maqsadlariga yo'g'rilgan buyuk qadamlar bosila boshlandi. Ular borgan sari bir-birini to'ldirar xalqimizning farovonligini oshirar edi.

Shunday tarixiy voqealardan biri SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida qabul qilingan "Mustaqillik Dekloratsiyasi" edi. Uning o'zni va ahamiyatiga alohida to'xtash lozim. Dekloratsiyaning qabul qilinishida Respublika Oliy sovetining deputatlari jonbozlik ko'rsatgan. Mustaqillik Dekloratsiyasi 1990 yil 20-iyunda qabul qilindi. Ushbu tarixiy hujjatda shunday deb yozulgan edi. "O'zbekiston bugun o'z hududida mutloq ega va unda yagona hukmron emasligini tan olib, tashqi mustaqillik huquqidan mahrum ekanligini etirof etib, jumxurriyat xalqining tub manfaatlari, uning erki va irodasini ifodalab, hokimiyat manbai xalq ekanligini e'tirof etib, xalq taqdiri va mulkiga egalik huquqi faqat uning o'zigagina berilganligini qayd etib, taraqqiyot yo'lini tanlash faqat xalqning ixtiyorida

¹⁹N. Jo'rayev, T. Fayzullayev. Mustaqil O'zbekiston tarixi 3. T. Sharq. 2000 y. 29 sahifa

²⁰N. Jo'rayev, T. Fayzullayev. Mustaqil O'zbekiston tarixi. T. "Sharq" 2000y 29-sahifa

ekanligini ta'kidlab, xalqaro huquq qoidalari, umuminsoniy qadriyatlar va demokratiya prinsiplariga asoslanib, jumxurriyat Oliy Kengashi O'zbekistonni suveren davlat deb e'lon qiladi".²¹

Prezident I.A.Karimov qayd etib o'tilgan prinsiplarni respublika hayotida aks ettira boshladi.

Xulosa qilib aytganda, bu muhim hujjat O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda muhim o'rin egallaydi. Zero, uning asosida boshqa davlatlar bilan aloqa prinsiplarini shartnoma asosida belgilash, o'z nomini erkin e'tirof etish, o'z davlat ramzlarini ta'sis etish va Davlat Konstitutsiyasini ishlab chiqish uchun asos bo'ldi.

²¹SH.Karimov, O'zbekiston tarixi. T. "Sharq" 327-328-sahifalar

§.3. “Mustaqillik Dekloratsiyasi”ning asosiy mazmuni

Mustaqillik Dekloratsiyasi 1990yil 18-iyun kuni XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasida ochildi. Deputatlarning taklifi bilan O'zbekistonning Mustaqillik Dekloratsiyasini qabul qilish masalasi sessiya kun tartibiga kiritildi. Oliy Kengashning doimiy komissiyalari, faol deputatlar va huquqshunos mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan Mustaqillik Dekloratsiyasi matni sessiyada qizg'in muhokama qilindi va O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida 1990 yil 20-iyun kuni qabul qilindi.²²

Mustaqillik Dekloratsiyasi o'zbek xalqining asriy xohish irodasi orzu umidlariga to'raligicha yo'g'rilgan oliy maqsadli 12moddadan iborat bo'lib, ular quyidagilardan iborat.

- 1.O'zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir.
- 2.O'zbekiston SSRning davlat hududi chegarasi dahlsiz va bu hudud xalqining muhokamasiga qo'yilmay turib o'zgartirilishi mumkin emas.
- 3.O'zbekiston SSRda davlat hokimiyati uning hududiga barcha tarkibiy va bo'linmas qismlari ustidan amalga oshiriladi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluqlidir.
- 4.SSSR Oliy Soveti qabul qilingan qarorlar O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan tasdiqlangandan keyingina O'zbekiston SSR hududida kuchga ega bo'ladi.
- 5.O'zbekiston SSR davlat hokimiyati va holatiga O'zbekiston SSR ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi.
- 6.O'zbekiston SSR xalqaro huquqining asosiy prinsiplarini tan oladi va hurmat qiladi.

²²W.w.w. Ziyonet. Uz

7.O'zbekiston SSR Ittifoqdosh respublikalar va boshqa davlatlar bilan o'zining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa munosabatlarini shartnomalar asosida belgilaydi va amalga oshiradi.

8.O'zbekiston SSR o'zining taraqqiyot yo'lini, o'z nomini belgilaydi va davlat belgilarini (gerb, bayroq, madhiya) o'zi ta'sis etadi.

9.Qoraqalpog'iston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi mustaqilligini Muxtor Respublika Konstitutsiyasi ta'min etadi. O'zbekiston SSR uning asosiy qonuni va O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi asosida Qoraqalpog'iston MSSR manfaatlarini himoya qiladi.

10.O'zbekiston SSRning qonun chiqaruvchi hokimiyati O'zbekiston SSR davlat mustaqilligini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qonunlar ishlab chiqadi, O'zbekiston SSRning siyosiy va iqtisodiy sistemalari tarkibini va qurilishi belgilaydi.

11.O'zbekiston SSR Oliy Soveti umumxalq muhokamasi asosida demokratik huquqiy davlat tuzishga qaror qilinganini bildiradi, O'zbekiston SSRda yashayotgan barcha millat va elatlarning qonuniy, siyosiy, iqtisodiy, etnik, madaniy huquqlariga hamda ona tillari rivojlantirilishiga kafillik beradi.

12.Ushbu Dekloratsiya O'zbekiston SSRning yangi Konstitutsiyasini hamda yangi ittifoq shartnomasini ishlab chiqish uchun asosdir.²³

Mustaqillik Dekloratsiyasining qabul qilinishi natijasida o'zbek xalqi o'zbek millatining sof tuyg'ulariga yo'g'rilgan ota-bobolardan meros, boy an'analarga sadoqat o'z shani or-nomusi tili, dini o'ziga ishonch oshishidagi juda muhim hujjat edi.

Suverentet haqida Dekloratsiya qabul qilar ekan, Oliy Sovet davlat qurilishining tarixiy tajribasiga va o'zbek xalqining shakllangan an'analarga har bir millatning

²³M.Jo'rayev va boshq. O'zbekistonning yangi tarixi.II-tom. "Sharq" T. 2000. 669-sahifa

o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi ta'minlanishiga, shuningdek xalqaro-huquqiy normalarga, umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslanadi.²⁴

Dekloratsiya butun davlatimiz hududida yashayotgan aholiga tegishli uning haq huquqlari yorqin namayon bo'lgan Konstitutsiya ishlab chiqilishiga ham asos bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Respublika rahbariyati deklaratsiyani amaliy jihatdan hayotga tadbqiq qilish borasida bir qator ishlarni amalga oshirdi.

Jumladan, Xitoy va Afg'oniston bilan tashqi savdoni va chegara yaqinidagi savdoni faollashtirish, xorijiy firmalar va kompaniyalar bilan qo'shma korxonalar tashkil etilishi, tashqi iqtisodiy faoliyatni qonun yo'li bilan tartibga solish, xorijiy investorlar uchun xalqaro normalar va qoidalarga rioya qilish kafolatlari, respublika yoshlarining harbiy xizmatga chaqirilishi va uni o'tash tartibining o'zgarishi bularning bari suverentetni rivojlantirish va mustahkamlash yo'lidagi muhim qadamlar edi.²⁵

Demak, boshqa davlatlar bilan savdo iqtisodiy munosabatlar ham kengayib bordi.

O'zbekistondagi jamoat tashkilotlari tizimi ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan xolda o'zgarib bordi. Buni biz xotin-qizlar tashkilotlari misolida ham ko'rishimiz mumkin ular o'z faoliyatlarini mazmun va sifat jihatidan ancha boyitib bordi. Ammo hammasidan bu xalq orasida mahalla qo'mitalarining ta'siri yanada oshib bordi, chunki mahalla milliy an'analar negizini tashkil qiladi.

Respublikada jamiyatni keng demokratlashtirish, SSSR tarkibida O'zbekistonning haqiqiy suverentetini o'rganish va shundan keyin millatlarning ma'naviy va

²⁴“O'zbekiston ovozi” gazeta. 1990yil 22-iyun

²⁵M.Jo'rayev va boshq. O'zbekistonning yangi tarixi. “Sharq” 2000 II-tom 670-sahifa.

moddiy tengligiga erishish, I.A.Karimov boshliq siyosiy rahbariyatning asosiy vazifalaridan biriga aylandi.²⁶

Respublikamizda oliy va o'rta maxsus ta'lim, xalq ta'limi vazirliklariga milliy tillarda o'qitish dasturi ishlab chiqildi.

O'zbekiston davlat teleko'rsatuv va radioeshittirishlar o'zbek, qozoq, tojik, qirg'iz, uyg'ur va boshqa tillarda olib boriladigan bo'ldi.

Millatlararo totuvlik baynalminallik ruhining ortishi yuksak madaniyatni shakllantirish ham tobora keng tarkib topa bordi. Buni 1991 yilning dastlabki oyida faqatgina Jizzax viloyatida "Do'stlik kengashlari" 675 taga yetganidan ham ko'rishimiz mumkin.

Ana shu davlat va jamoatchilik asosida tashkil qilingan yangi tizimlar millatlararo munosabatlarni takomillashtirishda bu sohadagi mavjud muammolarni yechishda, ziddiyatlarni bartaraf etishda katta rol o'ynadilar²⁷.

Mamlakatdagi ijtimoiy –siyosiy jonlanish partiya va xalq deputatlari syezdlariga saylangan respublika vakillarning ham faolligini oshirdi, ular o'z respublikalarining manfaatlarini qattiyat bilan himoya qildilar. Bu jihatdan SSSR xalq deputatlarining IV syezdi (1990 yil dekabr) harakterlidir. Notiqlar syezdi asosan mamlakatdagi g'oyat og'ir vaziyatni qayd qilib o'tdilar. I.A.Karimov syezdda maxsus ko'rib chiqish uchun tanglikdan chiqish chora tadbirlari sifatida intizomni, hokimyatni, huquq tartibotini mustahkamlashni taklif qildi.²⁸

I.A.Karimov boshliq rahbariyat Mustaqillik Dekloratsiyasini amaliy jihatdan hayotga tadbiq qilish va milliy davlatchiligimizni tiklashdek o'ta murakkab va masulyatli, shu bilan birga adolatli yo'lni tanladi. Bu yo'l qanchalik mashaqqatli

²⁶M.Jo'rayev va boshq. O'zbekistonning yangi tarixi. "Sharq" 2000 II-tom 672 -sahifa.

²⁷O'sha manba. 673 sahifa.

²⁸N.Jo'rayev, T.Fayzullayev. O'zbekiston tarixi (11 sinf uchun). T. 1996 23-sahifa.

bo'lmasin yuqorida keltirib o'tilganidek xalqimiz hayotining har bir jabhasida tub o'zgarishlar yasala boshladi.

Shunday qilib, xalqimiz millatimizning fuqarolar tinchliga milliy totuvlikni barcha dinlarning tarafdorlarining tengligi vijdon erkinligi, oilalarimiz, xotin-qizlar ahvoli yoshlarimizning kelajagini ta'minlash har bir yoshni ajdodlarga hurmat ruhida tarbiyalash yuqorida aytib o'tilganidek, xalqimizning farovonligini ta'minlash uchun olib borilgan barcha say-harakatlar zamirida qiyinchiliklar bilan qabul qilingan Mustaqilik Dekloratsiyasi yotadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

§4. “Mustaqillik Deklaratsiyasi”ning davlat mustaqilligini e’lon qilinishining tarixiy ahamiyati.

“Mustaqillik Deklaratsiyasi” xalqimiz tomonidan katta mamnuniyat mustaqillikka ishonch ruhi bilan kutib olindi. Aynan shu kundan boshlab respublikamizda barcha sohalar jumladan, iqtisodiy-siyosiy ijtimoiy, ma’naviy, madaniy hayotga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina boshlandi.

Bunga misol tariqasida ko’plab farmon va qarorlarni ko’rib o’tishimiz mumkin. 1991 yil 22-iyun O’zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumi qarorida Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga ittifoqqa bo’ysunuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning O’zbekiston SSR huquqiy tobeligiga o’tishi tartibini belgilash vazifasi topshirildi.²⁹

Jumladan, 1991 yil 14-fevralda O’zbekiston Oliy Kengashining navbatdan tashqari to’rtinchi sessiyasi bo’lib o’tdi. Sessiyada mamlakat Prezidenti I. Karimov nutq so’zlashdi. Mazkur nutq matbuotda “Murakkab vaziyatda oqilona siyosat yuritaylik”, degan sarlavhada chop etildi.³⁰ Shular va ular qatorida bir qancha farmon va qarorlar e’lon qilindi. Zero, ushbu hujjat O’zbekiston qonunlarining Ittifoq qonunlaridan ustivorligini ta’minladi. Mustaqillikkacha bo’lgan davrda Mustaqillikka erishuv yo’lini yoritdi.

O’zbekiston hukumati Mustaqillik Deklaratsiyasi asosida 1990 yilda dadillik bilan respublika manfaatlaridan kelib chiqqan holda bir qator tadbirlar majmuasini amalga oshirdi. “O’zbekiston SSRdagi ijro etuvchi va farmoyish beruvchi hokimiyat tuzilmasini takomillashtirish va O’zbekiston SSR konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o’zgartirishlar va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi qonun, “Yer to’g’risidagi” qonun, O’zbekiston Prezidentining respublika fuqarolariga yakka tartibda turar joy qurish va shaxsiy tomorqa xo’jaliklari uchun yer

²⁹R.X. Murtozaeva umumiy tahriri osdida. O’zbekiston tarixi. T. “Yangi asr avlodi” 2003. 532-sahifa.

³⁰O’sha kitob. 532-sahifa

uchastkalari ajratish to'g'risidagi, aholi punktlarini gazlashtirish, maktablar, hunar-texnika o'quv yurtlari, keyinchalikva oliy o'quv yurtlari talabalarining ovqatlanish uchun beriladigan imtiyozlarini saqlab qolish to'g'risidagi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining paxta xomashyosi, boshqa turlardagi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining harid narxlarini ko'p martalab oshirish to'g'risidagi, shuningdek qishloq xo'jaligidagi mehnatga to'lanadigan haqni oshirish to'g'risidagi qarorlar va boshqalar ana shularjumlasiga kiradi.³¹

Bu chora tadbirlarning amalga oshirilishi tub zahirida Mustaqillik uchun zalvorli qadam bo'lgan Mustaqillik Dekloratsiyasi yotadi. Uning qabul qilinishi xalqimiz qalbida ozodlikka erishish yo'li yoritgan nurafshon chiroq bo'ldi.

Shundayin bir sharoitda Prezidentimiz hayoti uchun xatarli bo'lgan bir vaziyatda ham bu buyuk inson o'z hayotini emas millat va yurt istiqboli xalqimizning erkin va farovon hayoti buyuk tariximizning tiklanishi va shu kabi o'ta dolzarb masalalarni xalqimiz manfaatlar yo'lida ketma-ketlikda amalga oshirdi.

O'zbekiston mustaqilligi to'g'risidagi Dekloratsiya muhim tarixiy hujjat bo'lib, mamlakatimiz o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritish uchun asosiy ustun va tayanchdir.

Mustaqillik tushunchasi o'zida azaldan insoniyatning orzu-umidlarini, arman va iztiroblarni mujassam etgan. Darhaqiqat, inson tabiatning gultoji sifatida hamisha ozodlik va xurriyatga intilib yashaydi. U hamisha har jihatdan o'zini erkin his qilishga, ozod yashashga, tahlikasiz turmush kechirishga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham kishilik tarixi turli davrlarda Yer sharining barcha mintaqalari ozodlik uchun kurashni, shaklan turlicha, mohiyatan o'xshash bo'lgan xurriyatga intilish hodisalarini ko'p ko'rgan.

³¹N.Jo'rayev, SH.Karimov.O'zbekiston tarixi. 711-712 sahifalar

Mustaqillikka erishish g'oyasi xalqimizga azaldan meros. Bu orzu avloddan avlodga o'tib, uning yilliklar qaridan bizgacha yetib kelmoqda.³²

Mustaqillik mustamlakachilikning har qanday shaklini, u taqazo etadigan tazyiqlar, kamsitishlar va zo'ravonliklarni inkor etadi. Ayni paytda mustaqillik jahon taraqqiyotining ilg'or tajribalari asosida o'z ravnaqining o'ziga xos tamoyillarni ishlab chiqish bilan birga yagona zamin, yagona makon taqdirini belgilashda o'zaro hamkorlikning yangi, sifat jihatidan yuqori bo'lgan, umuminsoniy manfaatlarga mos keladigan andozani asosida yashash demakdir. Agar u hamkorlik, o'zaro hamjihatlik, mamlakatlararo, davlatlararo va mintaqalararo siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarni qaror toptirmasa o'z qobig'da qolib ketishi, milliy mahdudlik doirasidan chiqolmasligi mumkin. Shuning uchun ham istiqbolning g'oyatda zalvorli tajribasidan o'tgan tamoyillar hamma vaqt dolzarb bo'lib qolaveradi. Chunki u doimiy ravishda rivojlanib, o'z-o'zini boyitib, takomillashib, fuqarolar ongi va tafakkurini o'stirib borayotgan tarixiy voqelikdir.³³

Mustaqillik – tabiatan ongli yashash, ongli munosabatni qaror toptirish mezon.

Mustaqillik bu totli nematga o'z-o'zidan erishilgani yo'q unga qancha qiyinchiliklar qurbonlar umrlar shu kabi timsollar orqali erishildi, va unga erishuv yo'lida vosita bu Mustaqillik Dekloratsiyasi desam mubolag'a bo'lmaydi.

Shunday qilib, Mustaqillik Dekloratsiyasi Mustaqillikkacha mavjud bo'lgan boshqaruv, huquqiy faoliyatini ta'minladi, barcha sohalarda mustaqil siyosat olib borish imkonini beradi.

Mustaqillik Dekloratsiyasi xalqimiz hayotida sodir bo'lgan muhim voqealar davlat mustaqilligining qabul qilinishi uchun tanlangan amaliy o'ta muhim qadam sanaladi. Bu amalda xalqimizning mustaqilligini bildiradi.

Xulosa

³²N. Jo'rayev. O'zbekiston tarixi. T. "Sharq". 2011. III-tom 9-sahifa

³³N. Jo'rayev. O'zbekiston tarixi. T. "Sharq". 2011 III-tom 10-11 sahifalar

Mustaqillik naqadar totli naqadar buyuk ne'mat Mustaqillik bu tenglik demakdir. Bu oliy ne'matga yetilish mehnatkash xalqimizning asrlar davomidagi ezgu orzu umidi va maqsadi hisoblanadi. Jang qurbonsiz bo'lmaganidek bu buyuk ne'matga erishish ham oson kechmadi bizga erkin teng huquqli jamiyat yaratish uchun qanchadan qancha ulug' zotlar jonlarini fido qildilar. Mustaqillikka erishuv yo'lidagi qurbonliklarni so'z bilan ta'riflash qiyin bu achchiq haqiqatni teran anglagan holda biz yoshlar mamlakatimiz taraqqiyoti xalqimiz farovonligi uchun qo'limizdan kelganicha harakat qilmog'imiz lozim.

Mustaqillik qo'lga kiritilishida Mustaqillik Dekloratsiyasining o'rni va ahamiyati salmoqlidir.

Davlatimiz Mustaqilligi arafasida respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat ayanchli va achinarli edi. Ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarida sof shovinistik mustamlakachilik siyosati olib borilar xalqimiz azob uqubatlarga duchor etilar edi. Insonlarning na yeganida na ichganida va na uyqusida halovat bo'lmagan.

Mana shunday sharoitda Mustaqillik Dekloratsiyasining qabul qilinishi zaruriy jarayon edi. Bu muhim tarixiy hujjat shaxsan yurtboshimiz tashabbusi bilan soha mutaxasislari ilg'or deputat va huquqshunoslar tomonidan xalq manfaatlarini ko'zlab ishlab chiqildi va qizg'in muhokama ostiga olinib nihoyat 1990 yil 20-iyunda qabul qilindi. Mustaqillik Dekloratsiyasi sababli o'z uyimizda o'zimiz ega va hokim bo'ldik. Xalqning istak va xoxishlari inobatga olingan holda qarorlar qabul qilinar chegaralarimiz dahlsiz bo'ldi. Ichki va tashqi siyosat qardosh va boshqa mamlakatlar bilan munosabatlar shartnoma asosida hal qilinib o'z gerb, bayroq va madhiyamizga ega bo'ldik.

Mustaqillik Dekloratsiyasining Mustaqilligimiz e'lon qilinishidagi tarixiy ahamiyati yuksak va mustaqillikkacha bo'lgan davrda insonlar hayotiga qatoryengilliklar olib bordi. Zero, uning qabul qilinishi Mustaqillikka erishuv uchun asos va mazmun hal qiluvchi bo'g'in hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. "O'zbekiston"
2012 yil

- 2.Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. T. "O'zbekiston" 1992 yil
- 3.Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura: T. "O'zbekiston" 1992 yil
- 4.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqaqorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. T. "O'zbekiston" 1997 yil
- 5.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "O'zbekiston" 1998 yil
- 6.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T. "Ma'naviyat" 2008 yil
- 7.H.Bobobekov va boshqalar. O'zbekiston tarixi. T. "Sharq" 2000 yil
- 8.Q.Usmonov, M.Sodiqov. O'zbekiston tarixi. T. 2012 YIL
- 9.Narzulla Jo'rayev, Shodi Karimov. O'zbekiston tarixi. 2-kitob T. "Sharq" 2011
- 10.A'zamxo'jayev S. Turkiston birligi uchun. T. "Fan" 1995
- 11.A'zamxo'jayev S. Turkiston Muxtoriyati. T. "Ma'naviyat" 2000 yil
- 12.Ibrohim A va boshqalar. Vatan to'yg'usi. T. "O'zbekiston" 1996 yil
- 13.Rajabov Q. Farg'ona vodiysida istiqloolchilik harakati: mohiyati va asosiy rivojlanish bosqichlari. Dissertasiya.T. 1995 yil
- 14.Rajabov Q va boshqalar. Turkiston tarixi. T. "Universitet" 2002 yil
- 15.O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" T. "Sharq" 2000 2-jild
- 16.Shamsuddinov R.T. Farg'ona qo'rboshilari. T. "Fan va turmush" 1997 yil
- 17.Hasanov M. Turkiston Muxtoriyati. "Fan va turmush". 1990 yil 8,12-sonlar
18. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida kitobini o'rganish bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma. T. "O'qiyuvchi" 2012 yil

19.Sharipov R.SH. Ijtimoiy va iqtisodiy kafolatlar. T. “O’zbekiston” 1991

20.Alimova va boshqalar. O’zbekiston tarixi. T. “Sharq” 2000 yil